



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

Adabiyotlar

Алишер Навоий. Бадоеъул бидоя. МАТ.1-т. Т.: “Фан”, 1987, 124-бет.

Абу Ҳомид Ғаззолий. Ихёу улумид дин. /Араб тилидан таржима.

Таржимон Р.Зоҳид. Т.: “Matbaachi”, 2022, 172-173-бетлар.

Ҳадис ровийлари: Исҳоқ ибн Исмоил, Суфён, Мисъар, Ибн Собит.

ALISHER NAVOIY BADIY KASHFIYOTLARI – CHO'LPON ESTETIK TAFAKKURI YANGILANISHI OMILI

Shahlo Hojiyeva,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

sh.hojiyeva@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/UWXK5561

Annotatsiya. Maqolada o'zbek mumtoz she'riyati, xususan, Alisher Navoiy nazmiy kashfiyotlari Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishining muhim poetik omili ekani tadqiq qilingan. Milliy she'riyatimizda poetik obraz va ramz, mazmun va shaklni yangilar ekan, shoir buyuk salafi Alisher Navoiy ijod laboratoriyasidan saboqlar olgani qiyosiy tahlil asosida dalillangan. Oltin qafas, bulbul, tosh obrazlari, “vafo qasri” – “muhabbat saroyi”, “ishq bahri” – “karashma dengizi” istioralari Navoiy lirikasida irfoniy ma'no ifodalagan bo'lsa, Cho'lpon she'riyatida ijtimoiy mazmun talqiniga xizmat qilgani dalillangan.

Kalit so'zlar: obraz, ramz, dunyoqarash, estetik mezon, badiiy tafakkur, poetik tasvir, ijodiy niyat.

Annotation. This article explores the significance of Uzbek classical poetry, particularly Alisher Navoi's poetic innovations, as a crucial poetic factor in the renewal of Cho'lpon's aesthetic thought. Through comparative analysis, it is demonstrated that while introducing new poetic images, symbols, content, and form into national poetry, the poet drew lessons from the creative laboratory of his great predecessor, Alisher Navoi. The study substantiates that while images such as the golden cage, the nightingale, and the stone, along with metaphors like “the palace of loyalty” – “the mansion of love” and “the ocean of love” – “the sea of glances”, conveyed mystical meanings in Navoi's lyrics, they served as instruments for social interpretation in Cho'lpon's poetry.

Keywords: image, symbol, worldview, aesthetic criterion, artistic thought, poetic representation, creative intent.

Milliy she'riyatni yangilash Cho'lpon ijod konsepsiyasining negizini tashkil etadi. Lekin bu ulkan ishni Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy kashfiyotlarni o'rganmay va ularni ijodiy qayta ishlamay turib, amalga oshirish imkonsiz edi. “Ishqiy g'azaliyotni yangicha ruh bilan boyitganlardan biri Cho'lpon bo'ldi, – deb yozadi Nodira Afoqova. – Bu yangichalik faqat davr bilan – Cho'lpon she'riyati o'z maslakdoshlari she'riyatidan sal keyinroq – adabiyotning asosiy parametrlari o'zgargan davrda bunyod bo'lganligi bilangina bog'liq emas. Bu – Cho'lponning badiiy tafakkur tarzi hamda olamni badiiy idrok va ifoda etish prinsiplari bilan bog'liq deb qarash lozim” [Afoqova, 2005:163]. Darhaqiqat, mumtoz shoirlar va

Cho'lponning estetik tafakkuri hamda olam va odamni idrok etish mezonlari farq qiladi. Lekin ana shunday o'ziga xos dunyoqarash va estetik mezonlar shakllanmog'i uchun Cho'lpon o'zigacha bo'lgan milliy va jahon adabiyotini chuqur o'rganishi, mavjud an'analarni yangilamog'i zarur edi.

Cho'lponning she'riyatda bu qadar yuksaklikka ko'tarilishi sabablarini, avvalo, poetik timsollar yaratishda buyuk Alisher Navoiy ijodxonasidan saboq olgani, bu timsollarga yangi mazmun, yangi ruh bag'ishlagani bilan izohlash to'g'riroq bo'lar edi. Cho'lpon qalamiga mansub "500 yil (O'zbek bilim hay'atiga)" sarlavhali maqola ham uning buyuk Alisher Navoiy adabiy merosiga bo'lgan chuqur ehtiromidan darak beradi. "Chig'atoy adabiyoti va tiliga Navoiyning qilg'an xizmati juda ulug'dir, – deb yozadi Cho'lpon. – Bu kungi yangi o'zbek adabiyoti va uning bu kungi sodda shevasi, menimcha, o'sha chig'atoy shevasidan o'zga emasdir. Ba'zi bir kishilar Navoiydan ancha keyin chiqqan adib va shoirlarimizdan bir-ikkita soddaroq yozg'anlarini ushlab olib, ularni haddan tashqari ko'tarmak bilan narigini bir qadar tubanlashtirmoqchi bo'lsalar ham, Navoiy o'zbek tili va adabiyotida tegishlik yuksak mavqeini olg'andir. Usmonli adabiyotining eng ulug' vakili bo'lg'an Fuzuliyning mashhur usmonli yozg'uchisi Shamsiddin Somibek Navoiydan keyinga qo'yib ko'rsatadir. Mana bu ham Navoiyning birgina o'zbek qavmi adabiyotida emas, umumturk xalqi adabiyotida ham o'ziga yarasha joy olg'anini ko'rsatadir" [Cho'lpon, 2016:20].

Adabiyotshunoslikda ba'zan Cho'lponning "Ulug' hindiy" maqolasidagi: "O'zimning yo'lsizlig'imdan bir oz so'zlab o'tayin: Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o'qiymen: bir xil, bir xil, bir xil! Ko'ngil boshqa narsa – yangilik qidiradir", [Cho'lpon, 2016:33] degan so'zlarini dalil sifatida keltirib, shoirni mumtoz adabiy an'analardan butunlay uzib ko'rsatishga harakat qilish tamoyili seziladi. Aslida, unday emas. Navoiy haqidagi maqolasidan olingan iqtibos ham fikrimizni tasdiqlaydi. Cho'lpon yoniq iste'dod sohibi edi. Yuqoridagi gapni buyuk salaflarini kamsitish yoki ular an'anasidan butunlay voz kechish ma'nosida emas, bu an'anani boyitish, yangilash zaruratidan kelib chiqib aytgan. "*Bu kungi yangi o'zbek adabiyoti va uning bu kungi sodda shevasi, menimcha, o'sha chig'atoy shevasidan o'zga emasdir*", degan fikri uning nafaqat poetik timsollar, balki badiiy asar tili borasida ham Navoiyni o'ziga ustoz deb bilganidan darak beradi. Biz shoir she'riyatini ana shu jihatdan – Navoiyona poetik timsollarning yangilanishi nuqtai nazaridan tahlil etishga harakat qilamiz.

Cho'lponning "Suygan choqlarda" she'rida mana bunday satrlarni o'qiymiz:

Go'zallarning malikasi ekansan,

Buni sening ko'zlaringdan o'qidim.

O'qidim-da, istiqbolim qushiga

Xayolimdan oltin qafas to'qidim.

Istiqbol haqidagi o'y nafaqat Cho'lponni, u bilan bir zamonda yashagan barcha millatparvarlarni o'ylantirgani ayon. Millatning munavvar siymolari bu o'ydan iztirob iskanjasiga tushgani ham rost [To'rayev, 2002:84]. Shoirning istiqbol qushiga xayolidan oltin qafas to'qishi – buning yorqin dalili. O'kinch ruhi bilan sug'orilgan bu satrlarni o'qir ekansiz, beixtiyor hazrat Alisher Navoiyning "G'urbatda g'arib..." deb boshlanuvchi ruboiysidagi "*Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa, Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish*", misralari yodga keladi. Navoiyshunos Yoqubjon Is'hoqov "Muhim falsafiy xulosa yoki tezisni bayon qilib, uni hayotiy detallar yordamida asoslash bir qator ruboiylar uchun xos bo'lib, bu hol ularning semantik strukturasiga

ham o'ziga xoslik bag'ishlashi" [Is'hoqov, 1983:82] haqida yozar ekan, misol sifatida ayni shu ruboiyni keltiradi. Ma'lum bo'ladiki, garchi Cho'lpon she'ri barmoqda, hazrat Navoiy ruboiysi aruzda bitilgan bo'lsa-da, bu ikki she'rni "oltin qafas" timsoli va uning zamiriga singdirilgan falsafiy (Cho'lponda ijtimoiy) mohiyatning o'ziga xos badiiy talqini birlashtirib turadi. Cho'lpon istibdodni ham g'ariblikning bir ko'rinishi deb tushunadi. Uningcha, istiqbol qushi erk istaydi, go'zallar malikasi – o'sha erk. "Istiqbol"ning "istiqlol"ga hamohangligi ham e'tiborli. "Oltin qafas" timsolining mazkur she'r mohiyatiga singib ketgani ikkinchi badda bulbulning eslanishida ham ko'rinadi: *"Alamzada bulbul yig'lab kechalar, Alamingning so'ngin tamom etmadi"*. Ma'lum bo'ladiki, Cho'lpon buyuk salafi she'riyatidagi har ikki – "oltin qafas", "bulbul" poetik timsollariga zamon ruhini olib kirgan, an'anaviy obrazga yangi mazmun bag'ishlagan. Zero, adabiyotshunos Ibrohim Haqqul ta'biri bilan aytganda: "Cho'lpon ijodining zamini va osmoni – Vatan. U hur va muzaffar Turkiston kuychisi. Cho'lpon o'zini yurtning pok istakli shoiri deb bilgan va hech qachon pokiza istaklaridan kechmagan. Cho'lpon orzu-istaklarining kuchi shundaki, shoir ona Turkiston tuprog'i kelgindi yovlar tomonidan toptalishiga qarshi munosabatini yashirmagan. Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur avlodlarining tarixi, tili, malaniyati, fan va san'ati buzg'unlik, siquvga giriftor etilayotganini baralla so'zlay olgan" [Haqqulov, 2018:5].

Cho'lponning "Qalandar ishq" g'azali 1920 yilda yozilgan. Ma'lumki, o'sha yili 1-5 sentyabr kunlari Bokuda Sharq xalqlari qurultoyi bo'lib o'tadi. Shoirning aksar she'rlari ana shu qurultoy munosabati bilan qilingan sayohat taassurotlari natijasida yozilgan. Qurultoyga Turkistondan butun boshli poezd to'la odam borgan. Xorijdan ham vakillar kelgan. Cho'lponning mazkur g'azali ostida "Boku, 1920 yil" degan qayd uchraydi. She'r an'anaviy aruzda va muhabbat mavzusida, hazaji musammani solim vaznida yozilgan.

*Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku.*

G'azalda mazmun – ishqiy, ohang – ravon, dard – cho'ng. Ammo, "asrlik tosh", "xatarlik yo'l" va unda "qotmoq" tasviri ishqiy mazmundan uzoqroqday go'yo. Sarlavhadan so'ng "Eski tartibda" degan izohning kelishi uning har jihatdan, jumladan, poetik obrazlariga ko'ra ham, mumtoz shoirlar ijodiy yo'lida yaratilganini ko'rsatadi. Jumladan, "muhabbatning saroyi" iborasi shoir tomonidan ishq bilan yashash tarzi, muhabbat kechinmasi bilan umrguzaronlik qilish mazmunini ifodalaydi. Muhabbat dialektikasi visol va hajr, lazzat va iztirob tushunchalari uyg'unligida mavjuddir. Navoiyda bunday turmush tarzini ifodalashda shunga muvofiq bo'lgan vafo qasri, sanam qasri, tun qasri, oy qasri, jahon qasri, falak qasri kabi o'nlab metaforalar mavjudki, Cho'lpon ulardan ta'sirlanmagan bo'lishi mumkin emas.

*Imorat tarhidur na'lu alifdin har taraf ko'ksun,
Vafo qasrin qo'parsang, bu binolar uzra devor et.* [Navoiy 2011: 99]

Hazrat Navoiy qo'llagan "vafo qasri" metaforasi zamirida chuqur mazmun ifoda etilgan. "Vafo qasri" va "muhabbatning saroyi" metaforalariga yuklangan ma'noda muayyan farq bo'lgani singari o'zaro uyg'unlik ham borligi kuzatiladi. Bundan tashqari, "Asrlik tosh" birikmasi ifodalagan mazmun, xususan, toshning poetik timsolga aylanishi ham xalq tili bilan birga Navoiy ta'sirida shakllanganidan dalolat beradi. Navoiyning bir qancha g'azallarida *tosh* betakror poetik timsolga aylantirilgani bu obrazning lirik qahramon ruhiyatini tasvirlashdagi o'rni qanchalik baland ekanini

ko'rsatadi. Misol uchun quyidagi baytni keltirish mumkin:

*Qatra qonlar gar tomar ko'ksunga urg'an toshdin,
Zaxmdindur demakim, qon yig'lar ahvolimg'a tosh* [Navoiy, 2011: 266]

Bunday tadrij usulida balog'at bilan yozilgan misralar Cho'lpon tafakkuriga chaqmoqday ta'sir etgani shubhasiz. Shuning barobarida, bu kabi satrlar Cho'lponning nazm imoratini Navoiy she'riyatiga xos timsollar asosiga qurgani haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

*Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'lqini bordir,
Halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta otdim-ku.*

Ushbu baytni tahlil etar ekan, professor Begali Qosimov mana bunday yozadi: "Karashma bировga yoqish uchun qilinadigan nozli, yoqimli xatti-harakatdir. Shoir uni dengizga qiyos qilyapti. Yoqimli dengiz, muallif nazdida uning po'rtanali ham, osoyishta ham payti emas. Yengil chayqalib turgan holati. Ohista chayqalgan dengiz kishini o'ziga rom etib, unga tushgan kishini ichkarilarga olib ketib qolganiday ma'shuqaning ham yoqimli harakatlari oshiqni sehlrab, oxiri nima bilan tugashini aytib bo'lmaydigan holga keltirib qo'ygan. She'rda mumtoz adabiyotimizga xos bo'lgan mana shu ruhiy va moddiy holatlarning ayni bir matnda jamlanishi yaqqol ko'rinib turibdi. Ayni paytda, bu yerda aldanganlik e'tirofi, hatto uning yengil iztirobi ham bo'rtib turibdi" [Qosimov, 2004:445]. Olimning bu tahlili bugungi o'quvchining she'r mohiyatini anglashida katta ahamiyatga ega ekani shubhasiz. Biroq hazrat Alisher Navoiy va Cho'lpon qo'llagan poetik timsollarni qiyosiy o'rganish she'r mazmunini yanada chuqurroq tushunish imkonini berishi ham aniqdir. Cho'lpon she'riyatida har bir misraning poetik mukammallikda namoyon bo'lishi buyuk salafi ijod maktabidan bahramandlik natijasi sifatida baholanishi mumkin. Professor Nurboy Jabborov Alisher Navoiy an'alarining Furqat ijodida angilanishi haqida yozar ekan, mana bunday to'xtamga keladi: "Furqat va uning zamondoshlari lirikasi mumtoz nazmiy an'analardan yangi o'zbek she'riyatiga o'tishda o'ziga xos adabiy ko'priq vazifasini o'tadi, deyish mumkin. Ushbu adabiy-estetik omil jadid she'riyati yuzaga kelishida muhim o'rin tutdi. Ular tahlili Furqat ijodiy kamolotida Alisher Navoiy an'alarining beqiyos ahamiyati haqida yorqin tasavvur berishi jihatidan qimmatlidir" [Jabborov 2021: 207-208]. Cho'lpon she'riyati misolida ham shunga monand fikrlarni aytish mumkin. Alisher Navoiy poetik kashfiyotlaridan bahramandlik – Cho'lpon ijodiy kamolotining muhim estetik omilidir. Shoir buyuk salafi an'analari negizida yangilik yarata oldi. Cho'lpon g'azalining yuqoridagi bayti avvalida kelgan "*Karashma dengizi*" metaforasi Navoiyning "ishq bahri", "vasl bahri", "latofat bahri", "g'am bahri", "ko'k bahri", "fano bahri", "chaman bahri" kabi juda ko'p takrorlanuvchi istioralari ta'sirida yaratilgan bo'lsa ham, yangi poetik mazmunni ifodalagani jihatidan qimmatlidir.

Ishq bahrida duri vasl istasang, ey ahli dard,

Ko'nglunguz ul naqd yodi birla xursand aylangiz. [Navoiy, 2011: 242]

Tabiiyki, Navoiy baytidagi "*ishq bahri*" bilan Cho'lpon she'ridagi "*karashma dengizi*" metaforalari o'rtasida muayyan farq bor. Navoiy g'azalida agarchi *ahli dard ishq bahrida vasl durini istasa, ko'nglini ul naqd yodi birla xursand etmog'i* zarurligi uqdiriladi. Ya'ni bu o'rinda sof oshiqona tuyg'ular talqini berilgan. Cho'lponda "*karashma dengizi*" metaforasi zamirida ishqiy kechinma tasviri tagmatniga ijtimoiy ruh ifodasi ham singdirib yuborilgani kuzatiladi. "*Halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta otdim-ku*" satri shunday xulosa chiqarish uchun yetarli asos beradi. Lekin har holda "*karashma dengizi*" metaforasi mumtoz she'riyat, alalxusus Navoiy lirikasi

ta'sirida ijod etilgani haqiqatga yaqindir.

Professor Homil Yoqubov fikricha: "Cho'lponning "Qalandar ishq" she'rida ishq-muhabbat talqini Navoiynikiga yaqinlashadi. Faqat Navoiyda oshiq-ma'shuq o'rtasidagi ko'ngilsizliklar – ma'shuqa bevafoqligi, zulmi – sitami, hijron balosi – boshqalar (ag'yor) obrazining to'sqinligi tufayli kelib chiqadi. Cho'lponga ko'ra, "muhabbat saroyi" g'oyat kengligidan ishq yo'lining o'zi benihoyat mashaqqatli, xatarli, halokatlidir; "uning gulzorida bulbul navosi" shoirning jigar-bag'rini qon qilib, ikki ko'zidan daryo-daryo yosh oqizadi. Shoir o'ta mubolag'ali kutilmagan ifoda usulidan foydalanib, alamlarga to'la, qalandarona ishqini kuylaydi... "Qalandar ishq" timsolida "muhabbat osmoni"ning eng yorug' yulduzi – ya'ni Cho'lponning o'zi bo'lishiga qaramay, u raqibi "quyosh nuriga chidamay", "qayg'ular alamlari birla" yana "kulbasi"ga qaytgani va yer qa'riga botib ketganini ifodalaydi" [Yoqubov, 1997:45].

Hazrat Navoiy she'riyatida tong yulduzining aynan "cho'lpon" tarzida qo'llanishiga ham misol bor:

*Quyoshni bo'lmas, ey gardun, ul oyg'a aylamak tashbih,
Og'iz gar zarra, Cho'lpon – ko'z, yangi oy anga qosh o'lsun*
[Navoiy NSh 2011: 509].

Baytda "Cho'lpon" – tong yulduzi yorning ko'ziga tashbeh etilgan. Buyuk shoir fikricha, quyoshni ul oyga – yorga tashbeh etib bo'lmaydi. Yor og'zini zarraga, ko'zini Cho'lponga, qoshini yangi oyga o'xshatish mumkin. Cho'lpon esa g'azalda, o'z taxallusini ham tong yulduzi, ham adabiy nisba sifatida qo'llar ekan, she'rni muhabbat osmonini yoritib turgan go'zal yulduz bo'lgani, biroq quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botgani haqidagi qayg'uli xotima bilan yakunlaydi.

"Uyqu" she'rining yozilishida, garchi unga "Bormaymen dedi" kuyiga" tarzida izoh berilgan bo'lsa-da, Navoiyning:

*Nargisin gul uzrakim bemor etar noz uyqusi,
Misli sho'xedurki, sust etgay ani yoz uyqusi.
Ko'z ochib behudlug'umni ko'rmasa, yo'qtur ajab –
Kim, manga baxt uyqusi bo'lmish anga noz uyqusi* – [Navoiy, 2011: 616].

deb boshlanuvchi g'azalining ta'sirini ham sezish mumkin. Mana, Cho'lponning buyuk salafi ijod namunasidan ilhomlanish, undagi obrazli tasvirni yangilash natijasida yaratilgan g'azalining matla'si:

*Jim turing, shovqinlamang, uyqu ichida ul pari,
Yurma, tek tur, ay shamol, yursang-da yur bir oz nari.*

Har ikki g'azal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan (taqte'si: *foilotun - foilotun - foilotun - foilotun*). Qalamga olingan mavzu uyg'un. Biroq Cho'lpon g'azalga yangi obrazlarni, yangicha ruhni olib kirgan. Buyuk salafidan olingan saboq shoirning mutlaqo yangi nazmiy asar yaratishiga mone' bo'la olmagan. Aksincha, mumtoz poetik an'ana negizida yangi badiiy inshoot barpo etishi uchun mahorat maktabi vazifasini o'tagan.

Bu ikki buyuk shoir she'riyatining o'zaro uyg'un jihatlariga, Cho'lpon she'riyatida Navoiyona poetik timsollar sinteziga yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Umuman, Cho'lpon buyuk mutafakkir bobosi ijodiga katta ehtirom bilan qaragan. Bu uning "500 yil" maqolasida ham yaqqol seziladi. Maqola hazrat Alisher Navoiy tavalludiga hijriy hisobda besh asr to'lishi arafasida yozilgan (Maqolada nimagadir bu sana buyuk shoir vafotiga 500 yil to'lishi tarzida xato berilgan). Cho'lpon mana bunday yozadi: "500 yil o'zbek-chig'atoy adabiyoti tarixiga allaqancha narsalar

bergan, unda qancha o'zgarishlar yasag'an juda uzun bir muddatdir. O'z adiblariga 5-6 asrlik bir tarix yashata bilgan xalqlar uncha ko'b emasdir. Demak, bizga ham shu bir yil orasida shunday katta bir shodliq, katta bir bayram o'tkazishga to'g'ri keladir. Vatandoshlarimiz ruslar Pushkinning har besh yili uchun ham katta bayramlar yasaydilar. G'arbda esa unday bayramlar juda katta tantanalar bilan o'tkaziladi... Shuning uchun men aytmoq istaymankim, Navoiyning 500 yilligini biz ham tegishlik darajada tantana bilan o'tkazishga shu tobdan hozirlana boshlayliq" [Cho'lpon, 2016:20]. Buning uchun shoir maxsus yubiley hay'ati tuzish, Navoiyning bosilmagan asarlarini topib, nashr ettirish, buyuk bobokalonimizning mukammal tarjimai holini yozdirish, she'rlaridan terma bir asar tuzib, nafis tarzda bosdirish, yuqori (oliy) o'qish yurtlarining til-adabiyot fakultetlari talabalari uchun Navoiy nomida stipendiyalar ta'sis etish, O'zbekiston poytaxtida ulug' shoirga haykal o'rnatish, ba'zi shaharlarning ko'chalariga buyuk mutafakkir nomini berish singari amaliy takliflarni beradi. Tabiiyki, Cho'lpon rejasidagi bu xayrli ishlar deyarli to'liq amalga oshgan bugungi kunda bu takliflar yangilik bo'lib tuyulmasligi mumkin. Biroq bu takliflarning bundan qariyb bir asr muqaddam birinchilardan bo'lib Cho'lpon tomonidan bildirilgani e'tiborga va e'tirofga loyiq bir ishdur.

Ta'kidlash kerakki, Cho'lpon XX asr boshlari sharoitida butun qalbi bilan hazrat Alisher Navoiyga muhabbat va ehtirom ko'rsatgan, buyuk salafi ijodxonasidan muttasil saboq olgan, she'riyatda uning lirikasiga xos poetik obraz va timsollarni yangi ruh, yangicha talqinlar asosida davom ettirgan va shu negizda yangi zamon she'riyatiga asos solgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Фаройиб ус-сиғар. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Наводир уш-шабоб. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
3. Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърий шакллар тараққиёти тамойиллари: филол.фан. д-ри.... дисс. – Тошкент, 2005.
4. Жабборов Н. Маоний аҳлининг охибқирони. – Тошкент: Адабиёт, 2021.
5. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983.
6. Тўраев Д. Миллий истиқлол ғояси ва жадид адабиёти / Жадидчилик ва миллий истиқлол тантанаси. – Тошкент, 2002.
7. Чўлпон. 500 йил. /Асарлар. Тўрт жилдлик, IV жилд. –Тошкент: Akademnashr, 2016.
8. Чўлпон. Улуғ ҳиндий. / Асарлар. Тўрт жилдлик, IV жилд. –Тошкент: Akademnashr, 2016.
9. Ҳаққул И. Ўлка қайғуси. /Чўлпон ижоди ва замонавий жараён. –Тошкент: Mashhur-Press, 2018.
10. Ҳомил Ёқуб. Чўлпон ва Навоий. – Тошкент: Шарқ, 1997.
11. Қосимов Б. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Олий ўқув юртларининг филология факультетлари учун дарслик. –Тошкент: Маънавият, 2004.

ALISHER NAVOIY DAVRIDA ISIRIQ SOLINGANMI?

Sulaymonov Mo'minjon Yusubjonovich,

filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston, Namangan davlat universiteti dotsenti

Ona tilimizning tarixiy takomili, adabiyotimiz rivoji, xalqimiz tarixi, madaniyatini o'rganishda mumtoz shoirlarimizning ijodiy merosi juda katta manbadir. Hofiz Xorazmiy ijodining ayrim xususiyatlarini tatqiq etganimizda ham bunga amin bo'lamiz. Tilga antroposentrik nazariyaning olib kirilishi tilni insonda, insonni tilda tadqiq etish mumkinligini ko'rsatdi. Insonning miyasida, ongida mavjud bo'lgan lison uning ma'naviyatini, shu bilan birga o'zi mansub bo'lgan millatga doir ma'naviy qadriyatlarni, milliy ruhni ham aks ettiradi. Shuning uchun ham tilning qay tarzda amal qilishini til egasi bo'lgan shaxs omili bilan birga ko'rib chiqish zaruratga aylandi.

Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasidir [Usmonova 2014, 16]. Har bir asar yaratilgan davrning til xususiyatlarini, shu bilan birga madaniyatini ham yaqqol aks ettiruvchi oynadir. Hofiz Xorazmiy g'azallarida ham bu jihatni sezish mumkin. Adib asarlarining til xususiyatlari u yashagan davrning ma'naviy qiyofasi haqida ham ma'lumot bera oladi. G'azallarni tadqiq etish orqali Hofiz Xorazmiy davridagi o'zbek tilining tarixiy takomilini, xususiyatlarini, o'ziga xosligini va naqadar boyligini ham ko'ramiz. Shu o'rinda yana bir muhim jihat ko'zga tashlanadi: g'azallarda o'z davri milliy odatlari ham namoyon bo'lganligini ham e'tirof etamiz.

Hofiz Xorazmiy Navoiygacha bo'lgan davrda eng mukammal devon tartib qilgan adiblardan biri bo'lsa-da, Alisher Navoiy bu adib haqida, ijodi to'g'risida hech qanday qaydlar qoldirmagan. Hofiz Xorazmiyning Xorazmda tug'ilib, Sherozda ijod qilganligi uning taqdir bitigi bo'lganidek, Devonining ham Hindistondan topilishi, garchi Atoyi, Gadoiy kabi adiblar bilan bir davrda yashagan bo'lsa-da, o'z davrining nodir manbalari – "Funun ul-balog'a", "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat"da qayd etilmasligi yanada sirlidir. Bu sirlilik, albatta, yangi tadqiqotlar uchun manba bo'lishiga ishonamiz. Hofiz Xorazmiy ijodini o'rganish muhim ilmiy-estetik va nazariy ahamiyatga ega, chunki uning adabiy merosi 14-asrning oxiri 15-asrning boshlaridagi o'zbek adabiyoti darajasini, mavqeyini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hofiz Xorazmiy lirikasini o'rganish katta amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, bularsiz o'sha davr adabiyotini to'la va yaxlit tasavvur qilish mumkin emas.

Asli Xorazm zamini farzandi bo'lsa-da, o'zini mashhur fors-tojik shoiri Hofiz Sheroziyning shogirdi deb hisoblagan va shu sababdan Hofiz taxallusini tanlagan bu so'z san'atkori hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan va o'zbek tilida Alisher Navoiyga qadar mukammal devon tartib qilgan shoirdirlardan biridir [Sulaymonov 1996, 26].

Hofiz Xorazmiy g'azaliyotida turkiy adabiyotda mavjud va umumiy bo'lgan bir necha an'anaviy obrazlarga shoirning shaxsiy dunyoqarashi bilan yondashilganligi, badiiy jihatdan boyitilganini ham ko'ramiz. Hofiz devonida mavjud 1052 g'azal shoirning naqadar kuchli badiiy did sohibi ekanligidan darak beradi. Bu esa Navoiyga qadar ham turkiy adabiyotning aslida gullab-yashnaganini, alohida badiiy-estetik hodisa ekanligini dalillovchi jihatdir. Alisher Navoiy ijodi fors adabiyotiga ergashib yoki taqlidan vujudga kelgan hodisa emas, balki Hofiz Xorazmiy kabi buyuk ijodkorlarning ma'naviy chashmalari bilan aloqadorligi haqiqatga ancha yaqin. Bu ikki adib dunyoqarashidagi

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hataların sebeplerine bir bakış	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622